

NOSOG'LOM IJTIMOIIY MUHITNING SOG'LOM BOLALAR IJTIMOIYLASHUVIGA SALBIY TA'SIRI

Mualliflar: KIUT Namangan filiali

“Pedagogika va psixologiya”

kafedra katta o'qituvchisi

Jurayeva Mushtariy Muxaydinovna

Rustamova Kavsaroy Ahmad qizi

KIUT Namangan filiali “Boshlang'ich ta'lim”

yo'nalishi 4-kurs talabasi

Telefon raqami: +99893 852-12-89

E-mail: mushtariy.jurayeva@mail.ru

E-mail: rustamovakavsaroy@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada nosog'lom ijtimoiy muhitning sog'lom bolalar ijtimoiylashuv jarayoniga ko'rsatadigan salbiy ta'siri ilmiy-nazariy va ijtimoiy-pedagogik jihatdan chuqur tahlil etiladi. Tadqiqot davomida ijtimoiylashuv tushunchasining mohiyati ochib berilib, oila, maktab, tengdoshlar guruhi, mahalla hamda zamonaviy axborot muhitida uchraydigan nosog'lom omillarning bolalar shahsiy rivoji, axloqiy qarashlari, muloqot madaniyati va ijtimoiy moslashuviga ta'siri asoslab beriladi. Ilmiy manbalar va nazariy yondashuvlar asosida nosog'lom muhit sharoitida ulg'ayayotgan sog'lom bolalarda psixologik beqarorlik, ijtimoiy passivlik, xulq atvordagi og'ishlar hamda talim jarayoniga salbiy munosabat shakllanishi ko'rsatib o'tiladi. Shuningdek, maqolada nosog'lom ijtimoiy muhitning oldini olish va bartaraf etishda oila, ta'lim muassasalari va jamiyat hamkorligining ahamiyati yoritilib, bolalarning sog'lom ijtimoiylashuvini ta'minlashga qaratilgan ijtimoiy-pedagogik tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Kalit so'zlar: ijtimoiylashuv, nosog'lom ijtimoiy muhit, sog'lom bolalar, shaxs rivoji, ijtimoiy moslashuv, axloqiy me'yorlar, ijtimoiy-pedagogik hamkorlik.

Аннотация. В статье с научно-теоретической и социально-педагогической точек зрения глубоко анализируется негативное влияние нездоровой социальной среды на процесс социализации здоровых детей. В ходе исследования раскрывается сущность понятия социализации, а также обосновывается влияние нездоровых факторов, встречающихся в семье, школе, группе сверстников, махалле и современном информационном пространстве, на личностное развитие детей, их нравственные взгляды, культуру общения и социальную адаптацию. На основе научных источников и теоретических подходов показано, что у здоровых детей, растущих в условиях нездоровой социальной среды, формируются психологическая неустойчивость, социальная пассивность, отклонения в

поведении и негативное отношение к образовательному процессу. Также в статье освещается значение взаимодействия семьи, образовательных учреждений и общества в профилактике и устранении нездоровой социальной среды, а также разрабатываются социально-педагогические рекомендации, направленные на обеспечение здоровой социализации детей.

Ключевые слова: социализация, нездоровая социальная среда, здоровые дети, развитие личности, социальная адаптация, нравственные нормы, социально-педагогическое взаимодействие.

Annotation. The article provides an in-depth scientific-theoretical and socio-pedagogical analysis of the negative impact of an unhealthy social environment on the socialization process of healthy children. The study reveals the essence of the concept of socialization and substantiates the influence of unhealthy factors found in the family, school, peer groups, community, and modern information environment on children's personal development, moral values, communication culture, and social adaptation. Based on scientific sources and theoretical approaches, it is demonstrated that healthy children growing up in an unhealthy social environment may develop psychological instability, social passivity, behavioral deviations, and a negative attitude toward the educational process. Furthermore, the article highlights the importance of cooperation among the family, educational institutions, and society in preventing and eliminating unhealthy social environments and presents socio-pedagogical recommendations aimed at ensuring healthy socialization of children.

Keywords: socialization, unhealthy social environment, healthy children, personality development, social adaptation, moral norms, socio-pedagogical cooperation.

KIRISH

Bugungi globallashuv va ijtimoiy muunosabatlar tez sur'atlar bilan rivojlanayotgan jamiyatda bolalarning ijtimoiylashuv jarayoni muhim pedagogik va ijtimoiy muammo sifatida namoyon bo'lmoqda. Bola shaxsining barkamol shakllanishi nafaqat uning jismoniy sog'lomligi, balki ijtimoiy, axloqiy va psixologik jihatdan sog'lom muhitda tarbiyalanishi bilan chambarchas bog'liqdir. Aynan bolalik davrida jamiyatning ijtimoiy me'yorlari, qadriyatlari, xulq-atvor qoidalari va ijtimoiy rollar o'zlashtiriladi hamda kelajakdagi ijtimoiy faoliyatning poydevori yaratiladi. Bunda asosan ijtimoiylashuv tushunchasiga birinchi e'tibor qaratamiz. Ijtimoiylashuv-bu bolaning jamiyat qadriyatlari, ijtimoiy me'yorlar, xulq-atvor qoidalari va rollarni o'zlashtirish jarayonidir. Ushbu jarayon orqali bola jamiyatda o'z o'rnini anglaydi, muloqot va hamkorlik ko'nikmalarini shakllantiradi, axloqiy, huquqiy va madaniy qadriyatlarni egallaydi, ijtimoiy mas'uliyat va mustaqil fikrlashni rivojlantiradi. Nosog'lom muhit esa bu jarayonni izdan chiqaradi.

O'zbekiston Respublikasida bolalar manfaatlarini himoya qilish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Jumladan, **“Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida”gi Qonunda** bolalarning sog'lom, xavfsiz va ijtimoiy jihatdan qulay muhitda yashashi va rivojlanishi davlat tomonidan kafolatlanishi belgilangan. Shuningdek, so'nggi yillarda qabul qilingan Prezident farmon va qarorlarida bolalarni ijtimoiy himoya qilish, ularning ma'naviy-axloqiy kamolotini ta'minlash, oilaviy va ijtimoiy muhitni sog'lomlashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu esa nosog'lom ijtimoiy muhitning bolalar rivojiga salbiy ta'siri davlat miqyosida ham dolzarb muammo ekanini ko'rsatadi.¹

Ilmiy tadqiqotlarda ham nosog'lom ijtimoiy muhit bolaning ijtimoiylashuv jarayonida deviant xulq-atvor, emotsional beqarorlik, kommunikativ qiyinchiliklar va ijtimoiy moslashuv muammolarini keltirib chiqarishi ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Mahalliy tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan izlanishlarda nosog'lom oilaviy va ijtimoiy muhitda ulg'ayayotgan bolalarda ijtimoiy rollarni egallash, jamoaga moslashish va ijtimoiy munosabatlarni shakllantirish jarayonlari sezilarli darajada murakkablashishi aniqlangan.

Xalqaro tashkilotlar, xususan UNICEF tadqiqotlarida ham bolaning sog'lom ijtimoiy rivoji uchun xavfsiz, qo'llab-quvvatlovchi va barqaror ijtimoiy muhit muhim omil ekani ta'kidlanadi. Quyida keltirilgan tadqiqotlar bunga misol bo'ladi:

- **UNICEF *The environment and child well-being*** - UNICEFning muhit va bolalar farovonligi haqida e'lon qilingan *policy brief* maqolasidir. Unda bolalar rivojlanishi asosan ularning o'sib kelayotgan jismoniy, ijtimoiy va ekologik muhit bilan belgilanishi ta'kidlanadi. Muayyan ekologik omillar (masalan, toza havo, xavfsiz joylar va sog'lom jamiyat) bolalar farovonligi va salomatligi bilan bevosita bog'liq ekanligi ko'rsatadi.²

- **UNICEF *State of the World's Children 2025*** - UNICEFning bu yillik hisobotida bolalar kambag'alligi va ijtimoiy deprivatsiya (ajratilganlik) bolalarning sog'lig'i, ta'limi va ijtimoiy rivojlanishiga qanday salbiy ta'sir ko'rsatishi tahlil qilinadi. Ushbu hisobotda bolalarning farovonligi nafaqat jismoniy salomatlik balki, ijtimoiy muhit, ta'lim imkoniyatlari va adolatli imkoniyatlar bilan bog'liq ekanligi qayd etiladi.³

- **UNICEF *Report Card 19: Child Well-Being in an Unpredictable World*** - UNICEFning 2025-yilda e'lon qilingan global hisobotidir. Mazkur *Report Card* bolalar sog'lig'i, ijtimoiy ko'nikmalar, ta'lim va ruhiy farovonlik kabi ko'rsatkichlarni tahlil qiladi hamda ularni global ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik sharoitlar bilan bog'laydi. Hisobotda bolalar farovonligi beqaror dunyo sharoitida salbiy tomonga

¹ O'zbekiston Respublikasi. (2008). *Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida* (O'RQ-139, 7-aprel).

² UNICEF. (2024). *Policy brief: Environment and child well-being* (Policy Brief). UNICEF.

³ UNICEF. (2025). *The State of the World's Children 2025: Ending child poverty – Our shared imperative*. UNICEF.

burilayotgan tendensiyalar qayd etiladi va bu tendensiyalar ijtimoiy muhit omillari (masalan, pandemiya, o'quv tizimidagi uzilishlar, tafovutlar) bilan chindan ham bog'liq ekanligi ko'rsatiladi.⁴

Yuqoridagi tadqiqotlarga asoslanib, shuni xulosa qilish mumkinki, nosog'lom ijtimoiy muhit bolalarning psixologik farovonligi, ta'limdagi muvaffaqiyati va kelajakdagi ijtimoiy faolligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi global miqyosda e'tirof etilgan. Shu bois, nosog'lom ijtimoiy muhitning sog'lom bolalar ijtimoiylashuviga ta'sirini ilmiy jihatdan tahlil qilish, salbiy omillarni aniqlash va ularni bartaraf etish mexanizmlarini ishlab chiqish bugungi kun pedagogik va ijtimoiy tadqiqotlari uchun nihoyatda dolzarb hisoblanadi.

Nosog'lom ijtimoiy muhit-bu bolada ijobiy ijtimoiy xulq shakllanishiga to'sqinlik qiluvchi omillar mavjud bo'lgan muhitdir. Bunday muhit quyidagilar bilan tavsiflanadi: oiladagi nizolar, zo'ravonlik va befarqlik, ota-onaning pedagogik savodxonligi pastligi, jinoyatchilik va deviant xulq keng tarqalgan mahalla, maktabdagi psixologik bosim, kamsitish va bulling tengdoshlar orasida salbiy yetakchilik, zararli axborot va virtual muhit ta'siri.

Mashhur rus psixologi Lev Semyonovich Vygotskiy bolalar rivojlanishini ijtimoiy muhit bilan bevosita bog'laydi. Uning fikricha: "Bolaning psixik rivojlanishi avvalo ijtimoiy faoliyat jarayonida shakllanadi, keyinchalik esa individual xususiyatga aylanadi." Vygotskiy ta'kidlaganidek, agar bola salbiy ijtimoiy muhitda — nizoli oila, zo'ravonlik, e'tiborsizlik yoki salbiy muloqot sharoitida ulg'aysa, uning ijtimoiy tajribasi buziladi. Natijada bola jamiyat bilan sog'lom munosabat o'rnatishda qiynaladi. Bu fikr nosog'lom ijtimoiy muhit bolaning ijtimoiylashuviga bevosita salbiy ta'sir yetkazishini ilmiy asoslaydi.

Nosog'lom muhit ta'sirining asosiy ko'rsatkichlari

Quyidagi belgilar bolaning nosog'lom muhit ta'sirida ekanini ko'rsatadi:

- o'z fikrini erkin bildirsa olmaslik;
- tez jahllanish yoki haddan tashqari tortinchoqlik;
- ijtimoiy faollikning pasayishi;
- tengdoshlar bilan nizolar;
- yolg'on gapirishga moyillik;
- kattalarga nisbatan ishonchsizlik.

Bu belgilar vaqtida aniqlanmasa, chuqur ijtimoiy muammolarga olib keladi.

Nosog'lom ijtimoiy muhitning bolalar ijtimoiylashuviga salbiy ta'siri quyidagilar hisoblanadi:

1. Shaxsiy rivojlanishga salbiy ta'siri

⁴ UNICEF. (2025). *Child well-being in an unpredictable world: Innocenti Report Card 19* (May 2025). UNICEF.

Nosog'lom muhitda ulg'aygan bolao'ziga bo'lganishonchni yo'qotadi, past o'zini baholash holatishakllanadi, qo'rquv, xavotir va tajovuzkorlik kuchayadi, ijtimoiy rollarni to'g'ri qabul qila olmaydi.

2. Axloqiy me'yorlarning buzilishi

Bola atrofidagi salbiy xulqni me'yor sifatida qabul qilishi mumkin. Natijada: yolg'on, tajovuz, hurmatsizlik odatiy holga aylanadi, ijtimoiy qoidalar inkor etiladi, mas'uliyatsizlik va befarqlik kuchayadi.

3. Muloqot va ijtimoiy moslashuv muammolari

Nosog'lom muhit bolada:

- tengdoshlar bilan muloqot qilishda qiyinchilik;
- jamoaga moslasha olmaslik;
- ijtimoiy chekinish yoki aksincha, haddan tashqari tajovuzkorlikni keltirib chiqaradi.

4. Ta'lim jarayoniga salbiy ta'siri

Bunday muhitdagi bola:

- o'qishga qiziqishini yo'qotadi;
- intizomiy muammolar namoyon etadi;
- bilim olish jarayonida passiv bo'lib qoladi.

5. Deviant xulq-atvor shakllanishi

Bu borada amerikalik olim Urie Bronfenbrenner fikrini korib chiqsak "Bola rivoji uni o'rab turgan barcha ijtimoiy tizimlarning o'zaro ta'siri mas'ulidir" bu fikr bilan u bolaning rivoji bir nechta muhitlar ta'sirida o'zaro shakllanishini isbotlaydi.

Nosog'lom muhit ta'sirida:

- huquqbuzarlikka moyillik;
- zararli odatlar;
- ijtimoiy me'yorlardan chetga chiqish holatlari yuzaga keladi.

Zamonaviy axborot muhitining ta'siri

Raqamli muhit ham ijtimoiylashuvga kuchli ta'sir ko'rsatmoqda. Nazoratsiz internet va ijtimoiy tarmoqlar:

- zo'ravonlikni targ'ib qiluvchi kontent;
- axloqiy me'yorlarga zid g'oyalar;
- yolg'on ijtimoiy ideal va stereotiplarni shakllantiradi.

Nosog'lom ijtimoiy muhitning eng kuchli manbai ko'pincha oiladir. Quyidagi holatlar ayniqsa xavflidir:

- ota-onaning befarqligi;
- doimiy janjallar;
- bolaga nisbatan zo'ravonlik yoki kamsitish;
- ortiqcha nazorat yoki mutlaq erkinlik.

Bunday oilalarda sog'lom bolalarda ham:

- ijtimoiy ishonchsizlik;
- passiv hayot pozitsiyasi;
- kelajakdan qo'rquv shakllanadi.

Maktab va ta'lim muhitidagi salbiy omillar

Ta'lim muassasalarida nosog'lom muhit quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- pedagogning avtoritar munosabati;
- psixologik bosim;
- bulling va kamsitish;
- o'quvchi shaxsiga e'tiborsizlik.

Bu esa:

- bolada maktabga nisbatan salbiy munosabat;
- ijtimoiy rollarni rad etish;
- jamoaviy faoliyatdan chekinishga olib keladi.

Tengdoshlar guruhi ta'siri

Tengdoshlar bolalar ijtimoiylashuvida kuchli omil hisoblanadi. Nosog'lom guruhda:

- salbiy yetakchi paydo bo'ladi;
- normaga zid xatti-harakatlar targ'ib qilinadi;
- ijtimoiy bosim kuchayadi.

Sog'lom bola ham guruhdan ajralib qolmaslik uchun:

- salbiy xulqqa moslashishga majbur bo'ladi;
- shaxsiy qadriyatlaridan voz kechadi.

Nosog'lom muhitning uzoq muddatli oqibatlari

Agar muammo vaqtida bartaraf etilmasa:

- shaxsning ijtimoiy yetukligi shakllanmaydi;
- jamiyatga moslashishda qiyinchiliklar kuchayadi;
- kelajakda ota-ona va fuqarolik mas'uliyati pasayadi;
- ijtimoiy faollik o'rnini befarqlik egallaydi.

Bu esa jamiyat taraqqiyotiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Bu esa bolalarda real ijtimoiy munosabatlarning buzilishiga olib keladi.

Ijtimoiy muhitda yuzaga keladigan har qanday nosog'lom holatlar — befarqlik, zo'ravonlik, ijtimoiy adolatsizlik, salbiy axborot oqimi, tarbiyaviy e'tiborsizlik va nizoli munosabatlar — shaxsning psixologik barqarorligi, axloqiy qarashlari hamda ijtimoiy moslashuv jarayoniga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Nosog'lom muhit, avvalo, shaxsning ijtimoiy tajriba orttirish imkoniyatlarini cheklaydi, ijtimoiy rollarni to'g'ri anglash va bajarish jarayonini murakkablashtiradi. Bunday sharoitda ulg'ayayotgan bolalarda kommunikativ qiyinchiliklar, tajovuzkorlik, ijtimoiy chekinish yoki aksincha, deviant xulq-atvor namoyon bo'lishi ehtimoli ortadi.

Shu bois, nosogʻlom muhit nafaqat individual muammo, balki jamiyat barqarorligiga tahdid soluvchi ijtimoiy-pedagogik muammo sifatida eʼtirof etiladi.

Shu nuqtai nazardan, nosogʻlom muhitning oldini olish va uni bartaraf etish yoʻllarini ilmiy-pedagogik asosda tahlil qilish, samarali profilaktik va reabilitatsion mexanizmlarni belgilash mazkur mavzuning dolzarbligini belgilaydi hamda uni chuqur oʻrganishni talab etadi.

Nosogʻlom muhitning oldini olish va bartaraf etish yoʻllari

1. Oilaviy muhitni sogʻlomlashtirish
 - ota-onalarning pedagogik va psixologik savodxonligini oshirish;
 - oilada mehr, hurmat va muloqotni kuchaytirish.
2. Ta'lim muassasalarining roli
 - maktabda sogʻlom psixologik muhit yaratish;
 - bulling va kamsitishga qarshi tizimli ishlar;
 - ijtimoiy-pedagogik xizmatlarni kuchaytirish.
3. Mahalla va jamiyat hamkorligi
 - ijtimoiy nazoratni kuchaytirish;
 - bolalar uchun foydali boʻsh vaqtni tashkil etish;
 - ijobiy ijtimoiy namunalarning targʻiboti.
4. Raqamli madaniyatni rivojlantirish
 - bolalarda media savodxonlikni shakllantirish;
 - ota-onalarning internet nazoratini toʻgʻri yoʻlga qoʻyish.

Profilaktika va ijtimoiy-pedagogik tavsiyalar

1. Erta ijtimoiy diagnostika
 - psixologik kuzatuv;
 - oilaviy muhitni oʻrganish;
 - boladagi xulqiy oʻzgarishlarni tahlil qilish.
2. Ijtimoiy-pedagogik qoʻllab-quvvatlash
 - individual yondashuv;
 - ijobiy muloqot muhitini yaratish;
 - ijtimoiy rollarni mashq qilish.
3. Ijtimoiy hamkorlik
 - oila – maktab – mahalla integratsiyasi;
 - bolalar uchun ijtimoiy loyihalar;
 - madaniy va sport faoliyatlarini kengaytirish.

TADQIQOTLAR NATIJALARI VA TAHLILLAR

Koʻplab ilmiy tadqiqotlarda taʼkidlanishicha (L.S. Vygotskiy, A. Bandura, É. Durkheim), bolaning ijtimoiylashuv jarayoni bevosita uni oʻrab turgan ijtimoiy muhit sifati bilan chambarchas bogʻliqdir. Olimlar fikriga koʻra, agar bola sogʻlom, qoʻllab-

quvvatlovchi muhitda tarbiyalansa, uning ijtimoiy rivoji barqaror kechadi, aksincha, nosogʻlom ijtimoiy muhit ijtimoiylashuv jarayonini izdan chiqaradi.

Oʻzbekistonlik olimlar B.R. Qodirov, R.H. Joʻrayev, Sh.E. Qurbonov va N.M. Egamberdiyevlarning ilmiy tadqiqotlarida nosogʻlom ijtimoiy muhit bolalarning ijtimoiylashuv jarayoniga salbiy taʼsir koʻrsatib, ularning jamoadagi faolligi, ijtimoiy moslashuvi va shaxs sifatida shakllanishini izdan chiqaradi,

- oilaviy nizolar, befarqlik va zoʻravonlik mavjud boʻlgan muhitda ulgʻayayotgan sogʻlom bolalarda muloqotga kirishish qiyinlashadi;

- maktab muhitidagi psixologik bosim va bulling holatlari bolalarda ijtimoiy chekinish yoki tajovuzkor xulqning kuchayishiga olib keladi;

- tengdoshlar orasida salbiy yetakchilik mavjud boʻlgan guruhlarda sogʻlom bolalar ham ijtimoiy meʼyorlardan chetga chiqishga majbur boʻladilar;

- pedagogik kuzatuvlar asosida nosogʻlom ijtimoiy muhitda tarbiyalanayotgan bolalarning ijtimoiy moslashuv koʻrsatkichlari oʻrtacha 20–30 foizga pasaygani aniqlangan.

L.I. Galaguzova (Л.И. Галагузова) nosogʻlom ijtimoiy muhit va bolalar ijtimoiylashuvi masalasini ijtimoiy pedagogika nuqtayi nazaridan chuqur tahlil qilgan olimlardan biridir. L.I. Galaguzovaning fikricha:

1. Ijtimoiy muhit – shaxs shakllanishining hal qiluvchi omili Galaguzova taʼkidlashicha, bola shaxsining ijtimoiylashuvi avvalo uni oʻrab turgan ijtimoiy muhit sifatiga bogʻliq. Agar muhit nosogʻlom boʻlsa (zoʻravonlik, befarqlik, axloqiy meʼyorlarning buzilishi, nazoratsizlik), hatto biologik va ruhiy jihatdan sogʻlom bola ham toʻlaqonli ijtimoiylasholmaydi.

2. Nosogʻlom ijtimoiy muhit “ijtimoiy xavf omili” hisoblanadi Olimaning fikriga koʻra, nosogʻlom oila muhiti, maktabdagi salbiy munosabatlar, tengdoshlar orasidagi deviant xulq-atvor hamda ommaviy axborot vositalarining nazoratsiz taʼsiri bolalar uchun ijtimoiy xavf omillari boʻlib, ular:

- ijtimoiy moslashuvning buzilishiga,
- axloqiy qadriyatlarning yemirilishiga,
- xulq-atvorda ogʻishlar paydo boʻlishiga olib keladi.

3. Sogʻlom bolalarda ham ijtimoiy dezadaptatsiya yuzaga kelishi mumkin Galaguzova alohida urgʻu beradiki, nosogʻlom muhit faqat “muammoli” bolalarga emas, balki sogʻlom bolalarga ham salbiy taʼsir koʻrsatadi. Natijada:

- psixologik beqarorlik,
- ijtimoiy passivlik,
- tajovuzkorlik yoki tortinchoqlik,
- taʼlim jarayoniga salbiy munosabat shakllanadi.

4. Ijtimoiy pedagogning roli muhim Olimaning konsepsiyasida ijtimoiy pedagog:

- nosogʻlom muhitni aniqlovchi,
- bolani ijtimoiy himoyalovchi,
- oila, maktab va jamiyat oʻrtasida vositachi boʻluvchi mutaxassis sifatida qaraladi.

Galaguzova bolalar ijtimoiylashuvidagi muammolarni faqat jazolash yoki nazorat orqali emas, balki profilaktika va ijtimoiy-pedagogik qoʻllab-quvvatlash orqali hal etishni taklif etadi.

5. Ijtimoiy-pedagogik hamkorlik zarurati Galaguzovaga koʻra, nosogʻlom ijtimoiy muhitning oldini olish quyidagi tizimli hamkorliksiz mumkin emas:

- oila,
- taʼlim muassasasi,
- mahalla va jamoatchilik,
- ijtimoiy xizmatlar.

Faqat ana shu hamkorlik sogʻlom bolalarning sogʻlom ijtimoiylashuvini taʼminlaydi.

L.I. Galaguzova nazariyasiga koʻra, nosogʻlom ijtimoiy muhit sogʻlom bolalarning ijtimoiylashuv jarayonini izdan chiqaruvchi asosiy ijtimoiy-pedagogik muammo boʻlib, uni bartaraf etish kompleks, tizimli va hamkorlikka asoslangan yondashuvni talab etadi.

Tadqiqot natijalari shuni koʻrsatadiki, nosogʻlom ijtimoiy muhit sharoitida bolalarda oʻziga ishonchsizlik, muloqotdan qochish, jamoaviy faoliyatda passivlik hamda ijtimoiy rollarni qabul qilishda qiyinchiliklar kuzatiladi. Ayniqsa, oilaviy va maktab muhitidagi salbiy omillar bir vaqtning oʻzida taʼsir koʻrsatganda, sogʻlom bolalarda ham ijtimoiy dezadaptatsiya holatlari kuchayadi.

Kuzatuv natijalariga koʻra, nosogʻlom muhitda tarbiyalanayotgan bolalarda “oʻz tashabbusi bilan muloqotga kirishish” xatti-harakati sezilarli darajada kamaygan, ijtimoiy faollik esa ijobiy muhitda tarbiyalanayotgan tengdoshlariga nisbatan ancha past boʻlgani aniqlangan.

XULOSA

Nosogʻlom ijtimoiy muhit sogʻlom bolalarning ijtimoiylashuv jarayonini izdan chiqaruvchi, ularning shaxs sifatida shakllanishiga salbiy taʼsir koʻrsatuvchi muhim xavf omili hisoblanadi. Bunday muhit sharoitida ulgʻaygan bolalarda ijtimoiy moslashuv, muloqot, axloqiy meʼyorlarni oʻzlashtirish hamda jamiyatdagi ijtimoiy rollarni anglash jarayonlari murakkablashadi. Natijada jismonan sogʻlom boʻlgan bolalarda ham psixologik beqarorlik, ijtimoiy passivlik yoki aksincha, tajovuzkorlik holatlari kuzatiladi.

Bola shaxsining barkamol rivojlanishi faqat biologik sogʻlomlik bilangina belgilanmaydi, balki uning ijtimoiy, axloqiy va psixologik jihatdan sogʻlom muhitda

kamol topishi bilan chambarchas bog'liqdir. Oila, ta'lim muassasasi, tengdoshlar guruhi, mahalla va axborot makoni kabi ijtimoiy institutlarning uyg'un va hamkorlikdagi faoliyati bolalarning to'laqonli ijtimoiylashuvini ta'minlovchi asosiy omillardan hisoblanadi.

Shu bois nosog'lom ijtimoiy muhitning salbiy ta'sirini bartaraf etish masalasiga kompleks va tizimli yondashuv zarur. Bu jarayonda profilaktik choralar, ijtimoiy-pedagogik qo'llab-quvvatlash, ota-onalarning pedagogik savodxonligini oshirish, ta'lim muassasalarida sog'lom psixologik muhitni yaratish hamda bolalarda media va ijtimoiy madaniyatni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur yondashuv jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash, barkamol va mas'uliyatli avlodni tarbiyalashning zarur sharti sifatida namoyon bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. O'zbekiston Respublikasi. (2008). *Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida* (O'RQ-139, 7-aprel).
2. UNICEF. (2024). *Policy brief: Environment and child well-being* (Policy Brief). UNICEF.
3. UNICEF. (2025). *The State of the World's Children 2025: Ending child poverty – Our shared imperative*. UNICEF.
4. UNICEF. (2025). *Child well-being in an unpredictable world: Innocenti Report Card 19* (May 2025). UNICEF.
5. Abdurahmonova, M., & Akramov, J. (2021). Pedagogik va ijtimoiy hamkorlikning bolalar ijtimoiylashuvidagi roli. *Ijtimoiy fanlar jurnali*, №2, 62–68.
6. Choriyeva, Sh. B. (2020). Ijtimoiy muhitning shaxs rivojiga ta'siri. *Pedagogik tadqiqotlar jurnali*, №3, 45–49.
7. Maxmudov, S. (2019). Kichik maktab yoshidagi bolalar ijtimoiylashuvining psixologik shartlari. *Pedagogika va psixologiya*, №4, 33–38.
8. Vygotskiy, L. S. (1982). *Tafakkur va nutq*. Moskva: Pedagogika.
9. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. (2020). *Bola huquqlarini himoya qilish va sog'lom ijtimoiy muhitni ta'minlashga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlar to'plami*. Toshkent.